

SAMARQAND OLIM VA ULAMOLARINING JAHON ILM-FANIDAGI O'RNI

Hamzayev Ravshanbek Erkinjon o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti tarix
fakulteti 2-bosqich talabasi.

E-mail: ravshanbekhamzayev04@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Samarqand Renessansi, O‘rta asrlarda Samarqand zaminida yashab ijod etgan ulug‘ ajdodlarimiz, allomayu muhaddislar, olimlar jumladan, Imam Dorimiy, Abu Mansur Moturidiy, Mirzo Ulug‘bek, Alouddin Ali Qushchi, Abdulloh Rudakiy kabilalar va ularning ilm-fan va Musulmon sivilizatsiyasiga qo‘s shgan beqiyos hissasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Musnad, Imamul Hudo, Mutakallimlar imomi, Abu Lays Samarqandiy, Farzandi arjumand, Samarqand Renessansi, Hanafiya, Zij, Rudak, Abu Hafs Nasafiy.

KIRISH

Samarqand dunyo madaniyati rivojiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘s shgan eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biridir. Xitoy bilan Yevropani, Hindiston bilan Shimoliy mamlakatlarni qadimiy savdo yo‘llari bilan bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Markaziy Osiyo shaharlari orasida o‘z madaniyatining qadimiyligi bilan Samarqand eng oldingi o‘rinlarda turadi. Yer yuzining sayqali nomini olgan bu yurtda yetishib chiqgan olim va ulamolar nafaqat Movarounnahr, balki butun insoniyat sivilizatsiyasida o‘zining ajralmas o‘rniga ega.

Samarqand ilmiy muhiti tarixi bilan shug‘ullangan Abu Hafs Nasafiy (1068-1142) o‘zining “Kitobul qand fi zikri ulamoi Samarqand” (“Samarqand ulamolari to‘g‘risida qanddek shirin kitob”) asarida Movarounnahrda ilk hadis ilmining rivojlanishi haqida aytib o‘tgan.[4:46-bet]. Zaif va ishonchsiz hadislarni tanqid qilish bilan bir qatorda, sahihlarini to‘plamga jamlash jarayoni ham boshlanib ketdi. Bu borada olimlar turli yo‘nalishlarda ish olib bordi. Sahih hadislarni jamlab, so‘ng butun islom olamida shuhrat qozongan samarqandlik muhaddislarning birinchisi Imam Dorimiy Hofiz Samarqandiydir (v. 869-y.). Imam Dorimiy islom olamida eng ishonchli sanalgan to‘qqiz hadis to‘plami orasida e’tirof etilgan “Musnad” majmuuni ta’lif qildi. 798-yili Samarqandda dunyoga kelgan bu olimga shu yili Abdulloh ibn Humayd Samarqandga voliy bo‘lib kelgani sharafiga “Abdulloh” deb ism qo‘yildi. Unga berilgan “Dorimiy” nisbasi bobosi Banu Dorim qabilasining mavlosi bo‘lganidan

darak beradi. Imom Dorimiy mehnatining Samarqand hadis maktabi uchun ahamiyatini Abu Hafs Nasafiy o‘z asarining 52 joyida zikr etgan.[3:111-bet]

Imom Buxoriyning hadis ilmida benazir ekaniga shak-shubha yo‘q. Ammo shu bilan birga, o‘sha davrda Imom Buxoriy bilan bir qatorda, Samarqandda hadis ilmi taraqqiyoti uchun jonbozlik ko‘rsatgan ulamolarning ham islam ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi katta edi. Imom Dorimiy hijriy 255-yil zulhijja oyining ikkinchi payshanbasida (milodiy 869-yil 16-noyabr) asr namozidan so‘ng vafot etgan. Juma kuni, hayit arafasida dafn etilgan[3:111-bet]

Mintaqaga hadislarning kirib kelishi islam dinining tarqalishi bilan sodir bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik bu sohaning rivojlanishida mahalliy olimlarning xizmati katta bo‘ldi. Mo‘tabar hadis to‘plamlarining paydo bo‘lishi, tarqalishi muhaddislarning mavqe va nufuzini mustahkamladi. Fikrlashimcha, Buxoro diyorida tug‘ilib o‘sgan bo‘lsada umrining oxirlari aynan Samarqand zaminida kechgan hadis ilmining sultonni Imom Buxoriy ham Samarqand hadisshunoslik maktabi rivojlanishida katta hissa qo‘shgan.

Ma’lumki, yurtimizdan azal-azaldan ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqanlar. Ayniqsa, o‘rta asrlarda (IX–XII) o‘z kashfiyotlari va ta’limotlari bilan jumhai jahonni lol qoldirgan yuzlab ulug‘ allomalar samarali faoliyat ko‘rsatganlar. Mana shunday mashhur siymolar silsilasida kalom ilmining asoschilaridan biri imom Abu Mansur al-Moturidiy hazratlari alohida o‘rin egallaydi. Hayot falsafasini qarangki, aynan 870-yilda buyuk vatandoshimiz, hadis ilmining sultonni imom al-Buxoriy hazratlari vafot topgan yili azim Samarqandning Moturid degan mahallasida ilohiyot ilmining bo‘lg‘usi yorqin yulduzlaridan biri imom Abu Mansur al-Moturidiy dunyoga keladi.

Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy as-Samarqandiy al-Ansoriy. “Muturidiy” nomi Samarqand shahridagi mahallaning nomi bilan bog‘liq. Uning shogirdlari turli nomlar bilan atashgan. Misol uchun “Imomul Hudo”, “Mutakallimlar Imomi”, “Musulmonlar e’tqodini to‘g‘rilovchi peshvo”, “Ahli sunna val jamoa raisi”. Bu sifatlar va nomlanishlar shogirdlarining qalbidan joy olganligi hamda sunnatni tarqatishda va uni himoya qilishda katta o‘rin egallaganidandir. Islom olamida buzg‘unchi e’tiqodlar (ekstremistik g‘oyalar) tarqalishni boshlangan mahal sharqiy mintaqada Imom Moturidiy yuksalgan bo‘lsa, Abul Hasan Ashariy(873, Basra - 935, Bag‘dod - diniy nazariyotchi, islam ilohiyoti — kalomning asoschilaridan biri. Mashhadda tahsil ko‘rgan, mo‘taziliylar nazaristchilaridan biri sifatida tanilgan. 912-yilda o‘z qarashlarini keskin o‘zgartirib, islam ilohiyotiga falsafiy uslubni kiritishga uringan. Mo‘taziliylar xos bo‘lgan juda ochiq ifodalangan ratsionalizmni ham, diniy e’tiqodda o‘ta ketgan formalizmni ham rad etgan. U asos solgan ta’limotni uning izidan borgan ilohiyotchilar (xususan Abu

Homid al-G‘azoliy) yanada takomillashtirganlar) esa Islomning o‘rtal mintaqasida paydo bo‘ldi. Imom Moturidiyning tug‘ilish sanasi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Uning nasabi Abu Ayyub Xolid ibn Zayd ibn Kulayb al-Ansoriyga borib taqalishi asarlarda kelgan. Ibn Kulayb al-Ansoriy Payg‘ambar s.a.v.ga sahoba bo‘lish va 7 oy xizmat qilish sharafiga erishgan. Imom Moturidiy Abbosiylar (847-861 mil. yil. / 232-247) davrida yashagan. Tarixchilar tug‘ilish sanasini ustozlari bilan qiyoslab, taxminan, hijriy 238-yilda, deb hisoblaydilar. Umilodiy 944/hijriy 333-yilda vafot etgan, deb aniq ma’lumot qoldirishgan.[2:126-bet]

Imom Moturidiyning ko‘p asarlari bizgacha tarixchilar va tabaqot kitoblaridan etib kelgan. Abu Mansur Moturidiy umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan muloqatda bo‘lgan va munozarlar olib borgan. U islom dini Hanafiya mazhabini Movarounnahrda tarqatish va o‘zidan keyingi avlodlarga qusursiz etkazish ishiga muhim hissa qo‘shti. Islom dini rivojida uning xizmatlari ham beqiyosdir. Aynan Moturidiy Kalom ilmi va Qur’oni karimni o‘rganish bo‘yicha o‘z davri ,balki hozirgi kun uchun ham mukammal bo‘lgan asarlar bitgan.

Abu Mansur al-Moturidiyning zamondoshlari hamda hamfikrlaridan mashhur fihq olimi Abul-Qosim Hakim as-Samarqandiy (856-946; hanafiylik mazhabining ko‘zga ko‘ringan nazariyotchisi, hakim. Samarqandda tug‘ilgan. Fors hanafiy olimi, qozi vq faylasuf olim hisoblanadi. Ayrim manbalarda u fiqh va kalom ilmida al-Moturidiy shogirdi sifatida ta’riflanadi. U kalomni yaxshi bilgan va har qanday tayinlangan hukmdor bo‘ysunishi talab qilinadigan hanafiy e’tiqodini yaratgan. Uning e’tiqodi karramiylarning qattiq zohidligini tanqid qiladi va muqaddas mo‘jizalar (karomat) haqidagi an’anaviy qarashlarni qabul qiladi. Abu al-Qosim hayoti sharqdagi hanafiy sunniylarining zohidlik ta’limotlari va ta’limotlarining shakllanishida burilish nuqtasi bo‘lgan. Uning “As-Savad al-Azam” asari azaldan fiqhda asosiy manba bo‘lib kelgan.)ni alohida ko‘rsatib o‘tish lozim.

Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ilmiy merosi (1394-1449).

Ulug‘bek 1394-yilning mart oyida Eronning g‘arbidagi Sultoniy shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug‘ildi. U Shohruk Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, unga Muhammad Tarag‘ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq u Ulug‘bek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik uning asosiy ismi bo‘lib qoldi. Ulug‘bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to‘garagi Sharq madaniyati va fani tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga, shuningdek, ko‘p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu yerda ko‘plab buyuk siymolar shakllandi.

Ulug‘bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma’lum va mashhuri uning «Zij»i bo‘lib, bu asar «Ziji Ulug‘bek», «Ziji jadidi Guragoniy» deb ham ataladi. «Zij»dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», astronomiyaga oid «Risolayi Ulug‘bek» (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh

universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») asaridir. Ulug'bek «Zij»i o'z tarkibiga ko'ra VIII–IX asrlarda boshlangan astronomik an'anani davom ettirsa ham ilmiy darajasi ularga nisbatan beqiyos balanddir.[2:63;64-betlar]

Mirzo Ulug'bek nafaqat hukmdor, balki o'z davrining yetuk qomusiy olimi ham edi. Ulug'bek hizmatlari bugungi matematika va astronomiya ilmlari uchun dolzarb ahamiyatga ega. Ulug'bekning olib borgan izlanishlari davomida aniqlagan ilmiy kashfiyotlari bugungi zamonaviy texnologiyalar asosida aniqlangan ko'rsatkichlarga aynan mos keladi.

Ali Qushchi o'z davrining Batlimusi deb tanilgan Ali Qushchining to'liq nomi Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi bo'lib, u Samarqandda tug'ilib o'sgan va XV asrda ilmiy faoliyat ko'rsatgan matematik va astronomlardandir. Uning tug'ilish sanasi ma'lum bo'lmasada, XIV asr oxiri yo XV asr boshida tug'ilgan deb taxmin qilinadi. U Ulug'bek saroyidagi Muhammad ismli ovchi qushlarga qarovchi bir kishining o'g'li bo'lib, shu sababli unga Qushchi laqabi berilgan. U otasidan yetim qolganidan so'ng Ulug'bekning tarbiyasida bo'lgani bois, Ulug'bek uni o'z «Zij»ining so'zboshisida «farzandi arjumand» deydi. U o'rta asrlardagi Movarounnahrda rivoj topgan aniq fanlar sohasidagi buyuk olimlarning eng so'nggi namoyandasini bo'lishi bilan birga Usmonli turklardagi birinchi eng yirik va ko'ringan olim bo'lgan. Hozirgi zamon turk tarixchilarining e'tirof etishicha, Istanbulga Ali Qushchi kelguniga qadar «ilmi hay'atda u daraja bir sohib vuqufi mavjud bo'lмаган edi». Istanbulga Ali Qushchi kelishi bilan bu mamlakatda qisqa muddat ichida astronomiya fani sohasidagi ishlar yo'lga qo'yildi va pirovard natijada Miram Chalabiy va boshqa atoqli zotlar yuzaga keldi. Ali Qushchining butun hayoti va ijodi fan yo'lida sarflandi. U o'z asarlari bilan va ustozni Ulug'bek bilan hamkorligi tufayli o'z nomini tarix sahifalariga abadiy kiritdi.[1:182-bet]

Samarqand diyorida yetishib chiqqanlar orasida Shoirlar ham bordur. Mashhur shoir, go'zal va hikmatli so'zlar sohibi, ajam diyorida "As-Soiru devona" laqabi bilan mashhur Abu Abdulloh Ja'far ibn Muhammad ar-Rudakiy as-Samarqandiy o'z zamonalarining forsiyda yaxshi she'rlar bituvchi zabardast shoirlaridan edilar. Buxoro amiri Ismoil ibn Ahmad as-Somoniyning vaziri Abul Fazl al-Bal'amiy aytardilar: "Arab va ajam diyorida Rudakiyga teng keladigani yo'q". Rudakiy milodiy 942-yil o'zi tug'ilib o'sgan Samarqandning Rudak nohiyasida dorul baqoga rihlat etdilar.[7:117-bet]

*O'z nafsin mag'lub etolgan marddir,
G'iybatdan uzoq-uzoq ketolgan marddir.
Nomard tepib o'tar yiqilganlarni,
Ojiz kishilar qo'lin tutolgan marddir.*

Mavlono Rudakiy

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘z davrida Samarqandda tug‘ilib o‘sigan va ijod etgan Allomalar, Muhaddisu shoirlar va Yirik astronom olimlar Dunyo va Musulmon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shishdi. Samarqandda rivojlangan yuksak ilm-fan taraqqiyoti o‘z navbatida Birinchi va Ikkinci Renessanslarga yohud "Samarqand Renessansiga" o‘ziga xos debocha bo‘ldi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Yangi O‘zbekistonning yangi rivojlanish yo‘lida Yurtimiz turistik salohiyatini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Jumladan vatanimiz tuprog‘ida yashab, ijod etgan Olim va Ulamolarni ilmiy merosini o‘rganish juda muhim vazifadir. Maqolamning xulosasida bugungi global zamon yoshlariga qanday insonlarni avlodlari ekanligimizni eslatish va bular bilan faxrlanish bilan bir qatorda shunday ajdodlarga munosib avlod bo‘lish kabi ulug‘ missiyamiz ham borligini yodga solishni zarur deb bildim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nilufar Jumayeva.Sharq allomalarining ilmiy merosi. Buxoro.:Durdona.2022
2. Bobir Namozov. Sharq allomalarining ilmiy-ma’naviy merosi. Buxoro.:Durdona.2022
3. Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiyy as-Sam’oniyy.Al-Ansob:T.II,IV/Abdulloh Umar al-Borudiyy tahriri ostida.Bayrut.:Dor al Fikr.1998
4. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy.Al-Qand Fi zikr ulamo Samarqand/Nazar Muhammad al-Foryobiyy tahriri ostida.-Saudiya Arabistoni.:Maktabat al-Kavsar.1991
5. Abul Hakimi Samarqandiy.Qandiya/Tarjima muallifi Komilxon Kattayev.Samarqand.:So‘g‘diyon.1994
6. Markaziy Osiyo madaniyati va san’ati:Ilm-fan//Moziydan taralgan ziyo.Toshkent.: Sharq.1998
7. Abdulkarim As-Samo‘niy.Nasabnama.T.:2017
8. Akhayev, F. (2020). THE PILGRIMAGE AND TRADITIONS OF JIZZAKH VALLEY RELATING TO CHILLAX. *Scienceweb academic papers collection.*
9. Akhayev, F. (2020). Жиззах воҳаси зиёратгоҳларининг пайдо бўлиши ҳақидаги қарашларда қадимги диний эътиқод излари. *Архив Научных Публикаций JSPI.*
10. Akhayev, F. (2020). Tarix fanini o‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish. *Архив Научных Публикаций JSPI.*
11. Akhayev, F. (2020). Holy places relating to the cult of animals in Jizzakh valley. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

12. Akhayev, F. (2020). About the Image of the Shaman which Studied on the Mountain Morguzar. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
13. Akhayev, F. (2021). Views on the Holying of Stones in Jizzakh Oasis. *Scienceweb academic papers collection*.
14. Akhayev, F. (2020). About the image of the Shaman which Studied on the Mountain Morguzar. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
15. Akhayev, F. (2014). Tarix fanini oqitishda innovatsion texnologiyalar (oquv-uslubiy qollanma). *Scienceweb academic papers collection*.
16. Akhayev, F., & Kovulov, J. (2021). Shrines with the Wonders of Nature of the Jizzakh Oasis. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 467-473.
17. Akhayev, F. (2020). ИНСОН МАЊНАВИЯТИ РИВОЖИДА ТАРИХНИНГ ЎРНИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
18. Akhayev, F. (2020). ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ АХОЛИСИНИНГ ЗИЁРАТ МАВСУМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҚАРАШЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
19. Akhayev, F. (2019). ЖИЗЗАХ ВОҲАСИНИНГ ТОШЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ҚАДАМЖОЛАРИ ВА УРФ-ОДАТЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
20. Akhayev, F. (2021). ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ ЗИЁРАТГОХЛАРИ ВА ҚАДАМЖОЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.